

CHO'L OZUQABOP O'SIMLIK TURLARI URUG'LARNING
TINIM DAVRI

G.U. Xamroyeva- q.x.f.f.d. (PhD)

*Urug'chilik va urug'shunoslik laboratoriyasi mudiri
Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand
sh.O'zbekiston*

E-mail: uzkarakul30@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larning tinim davrida urug'larning unishini tormozlovchi ingibitorlar mavjudligi va bunday hollarda maxsus ishlov berish kerakligi va standart sharoitlarda undirilganda bo'kmaydigan urug'lar qattiq urug'lar deb atalishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В статье приводятся сведения о существовании ингибиторов, которые тормозят прорастание семян в период покоя пустынных кормовых видов растений, и в таких случаях требуется специальная обработка, а семена, которые не набухают при выращивании в стандартных условиях, называются твердыми семенами.*

Abstract. *The article provides information about the existence of inhibitors that inhibit seed germination during the dormant period of desert fodder species of plants, and in such cases special treatment is required, and seeds that do not swell when grown under standard conditions are called hard seeds.*

Kalit so'zlar: *cho'l, yaylov, ingibitor, ozuqabop o'simliklar, skarifikatsiya, stratifikatsiya, unuvchanlik, tormozlovchi*

Ключевые слова: *пустыня, пастбище, ингибитор, кормовые растения, скарификация, стратификация, всхожесть, тормозящие.*

Key words: *desert, pasture, inhibitor, fodder plants, scarification, stratification, germination, inhibitory.*

Kirish. *Respublikamizda 2019-yilning 16-fevralida qabul qilingan O'RQ-521 "Urug'chilik to'g'risida" gi qonunda ekinboplik sifatleri sertifikatiga ega bo'lmagan urug'lardan foydalanish man qilingan. Lekin, cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlariga baho berish ishlari urug'chilik inspeksiyalarida hozirgi kunda yo'lga qo'yilmagan. Chunki, cho'l ozuqabop o'simliklari o'ziga xos biologik xususiyatlariga ega bo'lib, urug'larining ekinboplik sifatlariga baho berishning o'ziga xos uslublari mavjud. Ya'ni, cho'l ozuqabop o'simlik turlari*

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3**

urug'larining ko'pchiligi tinim davriga ega, ularni tinim davridan chiqarish uchun turli ishlov berish usullarini qo'llash talab qilinadi.

Ayrim turlar urug'lari qattqlik xususiyatiga ega bo'lib, ularning unib chiqishi uchun albatta skarifikasiyalash, stratifikasiyalash usullarini qo'llash zarur bo'ladi. Cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlarini baholash zarurati yana shundaki, ular o'z unuvchanligini qisqa vaqt ichida (8-10 oy) yo'qotish xususiyatiga ega bo'lib, muddati o'tgan urug'lardan foydalanish mutlaqo samarasiz bo'lishi mumkin. Yaylovlar hosildorligini oshirish muammosi respublikamizda dolzarb muammo bo'lar ekan albatta cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining bozori ham shakllanishi muqarrar. Shu bois, hozirgi kunda cho'l ozuqabop o'simlik turlari urug'larining sifat ko'rsatkichlarini baholash zarurati yuzaga keldi va bu borada urug'larning ekinboplik sifatlariga vaqtinchalik texnik shartlar ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Urug'larning tinim holati deganda - hayotchan urug'larning shunday holati tushuniladiki, bunda ular odatdagi sharoitda unib chiqmaydi, sekin unib chiqadi yoki o'ziga xos sharoitdagina unib chiqadi. Urug'larning tinim sabablari haqida bir qator gipotezalar mavjud. Urug'larning tinim holatini ularda ingibitorlar, ya'ni o'sishni to'xtatuvchi moddalar mavjudligi bilan tushuntirish mumkin, tinch holatda ingibitorlar va aktivatorlar miqdoriga bog'liq bo'lib, o'sish aktivatorlari ustunlik qilganda u buziladi.

Tinim davridagi urug'larning unishida tormozlovchi mexanizm sifatidagi roli turli sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin: ularning gaz va suv o'tkazuvchanligi, ayniqsa urug' qobig'ining yetarli emasligi; ularda ingibitorlarning hosil bo'lishi va to'planishi; qoplamalar urug'larning unishida mexanik to'siq ham bo'lishi mumkin. Urug'lar tinimining alohida turi qattiq urug'lik deb ataladi. "Qattiq urug'lik" atamasi nafaqat hodisaning o'zini belgilash uchun, balki ushbu urug' partiyasini qattiq urug'larning foiz tarkibi bo'yicha tavsiflash uchun ham qo'llaniladi.

Unuvchanlikni aniqlashning standart sharoitlarida undirilganda bo'kmaydigan urug'lar qattiq urug'lar hisoblanadi. Qattiq urug'lik darajasiga urug'larning yetilish sharoiti ta'sir ko'rsatadi. Umumiy qoida shundan iboratki, quruq va issiq ob-havo sharoitida pishganda qattiq urug'lik salqin va nam ob-havo sharoitida pishganga nisbatan keskinroq namoyon bo'ladi. Urug'larni yig'ib olingandan so'ng quritish va ularni saqlash sharoitlari qattiq urug'likning yanada kuchayishini belgilaydi.

Tabiiy sharoitlarda qattiq urug'lar qobig'ining suv o'tkazuvchanligi asosan harorat ta'sirida buziladi, ular juda xilma-xil bo'lishi mumkin: muzlash va erish, past ijobiy, keskin o'zgaruvchan va yuqori haroratlarda. Tinim holatdagi urug'lar tashqi sharoitning har qanday kombinatsiyasida unib chiqmaydi, bu ko'plab daraxt turlarida,

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3**

ba'zi o't o'simliklarida kuzatiladi, ularning unib chiqishi uchun past ijobiy haroratda va nam holatda yetilishi kerak ya'ni - **stratifikatsiya**.

Nisbiy tinch holatda urug'lar unib chiqish qobiliyatiga ega, lekin faqat ma'lum o'ziga xos sharoitlarda. Buning uchun past yoki, aksincha, yuqori harorat zarur yoki qo'shimcha omillar: yorug'lik, keskin o'zgaruvchan harorat, ba'zi kimyoviy moddalar va h.k. Qattiq urug'lar ko'p miqdorda bo'lganda maxsus ishlov berishga to'g'ri keladi, chunki dalaga ekilganda bunday urug'lar sekin unib, keyingi ekinlarni ifloslantirishi mumkin.

Qattiq urug'likni qobig'ini mexanik ta'sirlar yordamida unuvchanlikni oshirish katta amaliy ahamiyatga ega: **skarifikatsiya** - g'adir-budur yuzaga ishqalanish natijasida po'stning shikastlanishi, bunda urug'ning urilishi natijasida ustunsimon qatlamning yaxlitligi buziladi. Bu usullar qattiq chigitlilikni yo'qotish uchun qo'llaniladi.

Qattiq urug'likni yo'qotishning boshqa usullari ham ma'lum: quruq havoda yoki suvda qizdirish, shuningdek infraqizil nurlar bilan ta'sir qilish, ultratovush bilan ishlov berish, kuchli sulfat kislota bilan ishlov berish, ammo bu usul ham faqat oz miqdordagi urug'larni qayta ishlashda qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Urug'larning tinim holati maysalarning tez va bir tekis unib chiqishini pasaytiradi, laboratoriyada urug'larning unuvchanligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Boshqa hollarda, aksincha, urug'lar ildizda yoki uyumlarda unib chiqmasligi uchun tinim davri uzoqroq bo'lgani ma'qul.

Demak, urug'larning tinim holatini boshqara olish va uni bartaraf etish usullarini qo'llay bilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимаева Л.Н. Биология цветения и опыления прутняка в пустынной зоне Алма-Атинской области// Улучшение и рациональное использование пустынных пастбищ Казахстана.-Алма-Ата: Кайнар, 1975, с.- 16-26.
2. Ашурметов О.А., Каршибаев Х.К. Семенное размножение бобовых растений в аридной зоне Узбекистана. Ташкент,2002.-204 с.
3. Гриценко В.В., Калошина З.М. Семеноведение полевых культур. М., Колос,1976.-254 с.
4. Демьянова Е.Н. Аутэкология саксаульников каменистых пустынь Юго-Восточного Казахстана.-Экология, 1975, вып. 1, с.73-84.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-3**

5. Демьянова Е.И., Зутенина Н.А. К экологии цветения и опыления терескена серого (*Ceratoides rapposa* Botsch.et Ikonnikov) В кн.: Экология опыления. Пермь, 1978, с. 51-56.

6. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М., Колос, 1979.-416 с.

7. Ионесова А.С. Физиология семян дикорастущих растений пустыни. Ташкент, 1970.- 151 с.

8. Раббимов А. Ўзбекистонда изен ўсимлиги (*Kochia prostrata* L.) ва ундан фойдаланиш. Самарқанд, "Zarafshon" нашриёти, 2014.- 111 б.

9. Хамидов А.А., Шегай Ю.В., Шамсутдинов З.Ш. Биология плодообразования и семенная продуктивность пустынных пастбищных растений.- В кн.: Семеноводство пустынных пастбищных растений. Ташкент, «Фан», 1974, с. 23-51.